

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Butayev Norbek Tolib o'g'li

Samarqand shahar 5-sonli o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Email: norbekbutayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, integrativ hamda innovatsion yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, kasbiy tafakkuri, motivatsiyasi hamda refleksiv faoliyatining integral birligi sifatida asoslanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlardan maqsadli va tizimli foydalanish ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini takomillashtirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, didaktik imkoniyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES IN FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE

Butayev Norbek Tolib ugli

Teacher of secondary school No. 5 of Samarkand city

Annotation. This thesis analyzes the didactic possibilities of modern pedagogical approaches in the process of forming professional competence. The study highlights the role and importance of competency-based, person-oriented, systematic, integrative and innovative approaches in the educational process. Professional competence is based on an integral unity of a person's professional knowledge, practical skills and qualifications, professional thinking, motivation and reflexive activity. It is scientifically substantiated that the purposeful and systematic use of modern pedagogical approaches serves to improve the content, methods and forms of education, ensure the harmony of theory and practice, and increase the effectiveness of education.

Keywords: professional competence, modern pedagogical approaches, didactic opportunities, competency-based approach, person-centered education, innovative educational technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n17>

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozori talablarining ortib borishi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligiga nisbatan yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun shaxsdan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy hal eta olish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda o'z faoliyatini doimiy takomillashtirib borish kompetentligiga ega bo'lish talab etiladi. Shu bois, kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalasi ta'lim nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilashni taqozo etadi. Kompetensiyaviy,

shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, integrativ hamda innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish, talabalarning faolligi va mustaqilligini oshirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tezisda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berish maqsad qilib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilib, unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni yaxlit pedagogik hodisa sifatida qaraladi. Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan hamda integrativ pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish, bilimlarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash va shaxsning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida kasbiy kompetentlik ta'lim natijasi sifatida talqin etildi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonining samaradorligi talabaning real kasbiy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Ushbu fikr rus olimi A.V.Xutorskoy [1] tomonidan asoslab berilib, u kompetensiyalarni shaxsning amaliy faoliyatga tayyorgarligini ifodalovchi asosiy pedagogik natija sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va kasbiy qiziqishlarini inobatga olishni nazarda tutadi. I.A.Zimnyaya [2] kasbiy kompetentlikni shaxsning motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlarining birligi sifatida izohlab, ta'lim jarayonida talabaning faol subyekt sifatida ishtirok etishini metodologik jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, tadqiqotda tizimli va integrativ yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv kasbiy kompetentlikni o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida tahlil qilish imkonini bersa, integrativ yondashuv umumkasbiy va maxsus fanlar mazmunining uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xorijiy tadqiqotlarda bu yondashuvlar kasbiy tayyorgarlikning samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, David Kolb [3] tajribaviy o'rganish nazariyasida ta'lim jarayoni bevosita faoliyat, refleksiya va nazariy umumlashtirishning uzluksiz aylanishi asosida tashkil etilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, ilmiy manbalarni qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina ta'limning real natijadorligi ta'minlanadi. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va integrativ yondashuvlar kasbiy kompetentlikni shaxsning bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, kasbiy tafakkuri hamda refleksiv faoliyatining uzviy birligi sifatida shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvlar ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini yangilash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi asoslandi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni kasbiy kompetentlikni shakllantirishda barqaror va tizimli natijalarga erishishga xizmat qilishi,

talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlanadi. Bu holat ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot xulosalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish va ularni fanlar mazmuni bilan uzviy integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

- O'quv mashg'ulotlarida muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish hamda reflektiv faoliyatga yo'naltirilgan metodlardan keng foydalanish kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini oshiradi.

- Ta'lim mazmuni va metodlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish hamda baholash tizimini kasbiy kompetentlik darajasini aniqlashga moslashtirish zarur.

- O'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo'yicha kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

- Kelgusida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlarini empirik tadqiqotlar asosida yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kolb D.A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. Хуторской А.В. (2003). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. Москов: Народное образование.
3. Зимняя И. А. (2004). Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москов: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
4. Mahmudova, N., Parmonov, A., Turayev, A., Izbullaeva, G., Turumova, N., Toshpulatova, M., ... & Akhmedova, A. Leveraging Wearable Technologies and Embedded Systems to Improve Real-Time Student Engagement in Ubiquitous Learning Environments.
5. Parmonov A. Talabalarga zamonaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida berishning pedagogik zarurati //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 202-204.
6. Abdutolib P. ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF INFORMATION AND TECHNICAL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE EXAMPLE OF THEORETICAL MECHANICS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 28-32.
7. Abdutolib P. PEDAGOGICAL ESSENCE AND MODEL OF FORMATION OF INFORMATION AND TECHNICAL COMPETENCE IN APPLIED MATHEMATICS STUDENTS IN BACHELOR STUDIES //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 26-34.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.